


I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi 37 784,8 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 2020 yilning shu davriga nisbatan 107,1 foizni, YaHMning deflyator indeksi 114,9 foizni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 9 497,7 ming so'mni va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,1 foizni tashkil etdi.

Viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'ati, % da</i>
	<i>yanvar-sentabr oylarida</i>		
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	30 719,4	37 784,8	107,1
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 127,4	36 997,9	107,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	592,0	786,9	107,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 127,4	36 997,9	107,1
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13 438,3	16 431,5	102,4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 046,6	7 508,1	111,3
Sanoat	4 267,3	5 244,4	109,3
Qurilish	1 779,3	2 263,7	116,0
Xizmatlar	10 642,5	13 058,3	110,6
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 960,4	2 402,4	108,9
Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	1 829,2	2 363,8	118,3
Boshqa xizmatlar	6 852,9	8 292,1	109,0




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi, % da

2020 yil




2021 yil



2021 yilning yanvar-sentabr oylarida YaHMning o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,1 foizni tashkil qilishiga yalpi qo'shilgan qiymat hissasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining 2,4 foizga, (YaHM tarkibidagi ulushi 44,4 %), sanoat 9,3 foizga (14,2 %), qurilish 16,0 foizga (6,1 %) xizmatlar 10,6 foizga (35,3 %) shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 8,9 foizni (6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 18,3 foizga (6,4 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar 9,0 foizga (22,4 %) o'sishi hisobiga to'g'ri keldi.

YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,9 foizni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 foizni tashkil etdi.

Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,2 bandga ko'payib hisobot davrida 20,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi 0,2 bandga kamayib 44,4 foiz bo'ldi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, % da




YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 74,7 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich 2020 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,3 bandga kamaygan.

YaHMda kichik biznesning ulushi, jamiga nisbatan % da



YaHMning deflyator indeksi bo'yicha o'sish sur'atlari, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari

YaHMning deflyator indeksi yanvar-sentabr oylarida 114,9 foizni tashkil qilib, eng yo'qori o'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi (119,4 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (112,5 %) va sanoat sohalari (112,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.